


Mahmudxo`ja Behbudiylavalludining 150 yilligimunosabati bilan
“Behbudiyl — Ma`rifat Mash`ali: 150 Yillik Meros” deb nomlangan
taqdimot.



MAHMUDXO`JA
BEHBUDIY
(1875-1919)

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1874-yil 30-yanvarda Samarqand shahrining Yomini mahallasida imom-xatib Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li xonadonida tug‘ilgan. Otasi Ahmad Yassaviy avlodidan. Otasining buvasi Niyozxo‘janing asli kelib chiqishi urganchlik bo‘lib, Samarqandga XVIII asr oxirida, amir Shohmurod hukmronlik davrida ko‘chib kelgan.



**Behbudiy dastlab otasidan Qur'on ilmini
o'rgangan, keyinchalik 6-7 yoshlarida tog'asi
Muhammad Siddiq qo'lida o'qib, savod
chiqargan. 15 yoshida boshqa bir tog'asi Mulla
Odil o'zi mudarrislik qilgan madrasada o'qitib
ta'lim bergan**



Behbudiyy 18 yoshida Chashmai ob volostida qozi vazifasida ishlagan tog'asi Muhammad Siddiq qo'l ostida mirzalik qilgan. Tog'asi oldida ikki yil ishlagach, mirzalik faoliyatini Kobud volosti qozisi Mulla Zubayr Yaxshiboy o'g'li qo'lida davom ettiradi. Chunki bu paytda tog'asi qozilikdan bo'shatilgan. Mirza va qozilik bilan shug'ullanib, so'ng Jomboyda muftiylik darajasiga ko'tarilgan.

Behbudiy 1899–1900-yillarda buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan birga Makka va Madinada haj safariga otlangan. Shu sababli Rossiya, Arabiston, Misr, Turkiyani kezib chiqqan. Safar jarayonida sayohatning har qanday turi – poyezd, kema, otda va piyoda yurib dunyo kezgan. Sayohat davomida yangi maktab (usuli jadid) ochish fikri mustahkamlanib bordi.




**Behbudiyning yurt obodligi
yo'lida boshlagan ijobiy
ishlaridan biri „Behbudiya“
kutubxonasining tashkil
etilishi bo'ldi. Behbudiy
birinchilardan bo'lib
Samarqandda kutubxona
faoliyatini yo'lga qo'ygan[**



**Behbudiy o'zbek
dramaturgiyasining asoschisi
hisoblanadi.**

**Uning eng mashhur asari —
“Padarkush” (1911-yil).**

**Bu asar — birinchi o'zbek
dramasi bo'lib, jaholat va
tarbiyasizlikning oqibatlarini
fosh etadi.**



**Mahmudxo'ja Behbudi —
o'zbek xalqining milliy
uyg'onish davrida ma'rifat,
adolat va erkinlik yo'lida
fidokorona kurashgan, xalqni
jaholatdan chiqarishga
chaqirgan buyuk alloma va
jadidchidir.**



E'tiboringiz uchun rahmat 😊

